

The background features an abstract design with three concentric blue circles of varying sizes. Two thin blue lines intersect at a point between the top and middle circles. A large, partially visible concentric blue circle is located in the bottom right corner.

**“INNOVATSION IQTISODIYOT VA
MENEJMENT: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA
ISTIQBOLLAR” xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

10.04.2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

**“INNOVATSION IQTISODIYOT VA MENEJMENT: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(10-aprel 2026-y.)

Samarqand - 2026

Shanazarov Farrux Shadiyorovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi. <https://orcid=0009-0003-4377-2086>
e-mail: f.shanazarovv@gmail.com

IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA ISLOHOTLAR: XALQARO AMALIYOT VA O‘ZBEKISTONDA JORIY ETISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini rivojlantirishning xorijiy tajribasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Jahon amaliyotida shakllangan ijtimoiy xizmatlar modellari, xususan Skandinaviya mamlakatlarida qo‘llanilayotgan universal ijtimoiy xizmatlar tizimi institutsional tuzilishi, moliyalashtirish mexanizmlari va ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy xizmatlarni inson kapitaliga qaratilgan uzoq muddatli investitsiya sifatida talqin qilishning nazariy va amaliy asoslari ochib berilgan. Olingan natijalar asosida xorijiy tajribaning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda qo‘llash imkoniyatlari baholanib, ijtimoiy xizmatlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy xizmatlar, xorijiy tajriba, Skandinaviya modeli, ijtimoiy siyosat, inson kapitali, davlat ijtimoiy siyosati.

Аннотация: В статье проведён научный анализ зарубежного опыта развития системы социальных услуг. Рассмотрены модели социальных услуг, сформировавшиеся в мировой практике, в частности универсальная система социальных услуг, применяемая в странах Скандинавии, с точки зрения институционального устройства, механизмов финансирования и социальной эффективности. В ходе исследования раскрыты теоретические и практические основы рассмотрения социальных услуг как долгосрочных инвестиций в человеческий капитал. На основе полученных результатов оценены возможности адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана, а также разработаны научно-практические выводы и рекомендации по совершенствованию системы социальных услуг.

Ключевые слова: социальные услуги, зарубежный опыт, скандинавская модель, социальная политика, человеческий капитал, государственная социальная политика

Zarubejnyy opyt razvitiya sistemy sotsialnykh uslug i vozmojnosti yego primeneniya v usloviyax Uzbekistana

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of foreign experience in the development of social services systems. The study examines social service models formed in international practice, with particular emphasis on the universal social services system implemented in Scandinavian countries, focusing on its institutional framework, financing mechanisms, and social effectiveness. The research highlights the theoretical and practical foundations of interpreting social services as long-term investments in human capital. Based on the findings, the possibilities of adapting foreign experience to the socio-economic conditions of Uzbekistan are assessed, and policy-oriented conclusions and recommendations for improving the national social services system are proposed.

Keywords: social services, foreign experience, Scandinavian model, social

policy, human capital, state social policy.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi aholi turmush sifatini yaxshilash, ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashning muhim institutsional omili sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va aholining zaif qatlamlariga xizmat ko'rsatish inson kapitali sifatini oshirish orqali mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, **World Bank**¹²¹ ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan har bir 1 AQSh dollari uzoq muddatda o'rtacha 2–4 dollar miqdorida iqtisodiy qaytim beradi (World Bank).

Globalashuv, demografik o'zgarishlar, aholining qarishi, urbanizatsiya hamda raqamli transformatsiya jarayonlari ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. **United Nations**¹²² ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo aholisining 10 foizidan ortin'i, ya'ni 770 milliondan ziyod kishi 65 yoshdan yuqori yosh toifasiga mansub bo'lib, 2050-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 16 foizga yetishi prognoz qilinmoqda (UN, *World Population Prospects 2023*). Bu esa keksalarga xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy parvarish xizmatlarini kengaytirishni strategik vazifaga aylantiradi.

Adabiyotlar sharhi. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi ilmiy adabiyotlarda ko'p tarmoqli va fanlararo kategoriya sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushuncha iqtisodiyot, sotsiologiya, ijtimoiy siyosat hamda davlat boshqaruvi nazariyalari kesishmasida shakllangan bo'lib, uning mohiyati, funksiyalari va institutsional asoslari turli ilmiy maktablar doirasida turlicha izohlanadi.

Bunday yondashuv ijtimoiy xizmatlarni faqat ijtimoiy himoya vositasi sifatida emas, balki jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kompleks institutsional mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

Klassik sotsiologik yondashuvlarda ijtimoiy xizmatlar jamiyatning institutsional barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Xususan, T. Parsons ijtimoiy xizmatlarni "yaxlit ijtimoiy tizim"ning tarkibiy elementi sifatida talqin qilib, ular orqali ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar va ijtimoiy tartibning qayta ishlab chiqilishini ta'kidlaydi (Parsons, 1964). Uning fikricha, ijtimoiy xizmatlar ijtimoiy tizimdagi ijobiy o'zgarishlarning institutsional asosini tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan fanlararo yondashuvlar ijtimoiy xizmatlar mohiyatiga nisbatan yagona ilmiy ta'rif mavjud emasligini ko'rsatadi. Shu bois, ijtimoiy xizmatlar tushunchasini chuqurroq ochib berish va uni iqtisodiy-institutsional kategoriya sifatida asoslash uchun xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlarni tizimli umumlashtirish zarurati yuzaga keladi. Mazkur vazifani hal etish maqsadida quyida ijtimoiy xizmatlar mohiyatiga oid xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar jadval shaklida umumlashtirildi. (1-jadval).

¹²¹ World Bank, *The State of Social Safety Nets*,

<https://www.worldbank.org/en/topic/socialprotection>

¹²² UN, *World Population Prospects 2023*, <https://population.un.org/wpp>

Ijtimoiy xizmatlar mohiyatiga oid xorijiy ilmiy yondashuvlar

1-jadval

№	Muallif	Asar	Asosiy g'oya va xulosa
1	Adam Smith	<i>An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations</i> (1776)	Mehnat qobiliyati va bilim milliy boylik manbai sifatida asoslangan
2	John M. Keynes	<i>The General Theory of Employment, Interest and Money</i> (1936)	Davlatning ijtimoiy sohadagi faol ishtiroki iqtisodiy barqarorlik sharti sifatida talqin qilingan
3	Gary Becker	<i>Human Capital</i> (1964)	Ta'lim va sog'liqni saqlash ijtimoiy xizmatlari investitsiya sifatida izohlangan
4	G. Esping-Andersen	<i>The Three Worlds of Welfare Capitalism</i> (1990)	Ijtimoiy xizmatlar farovonlik davlati modellarining institutsional asosi sifatida tasniflangan
5	World Bank	<i>World Development Report</i> (2019)	Ijtimoiy xizmatlar inson kapitali orqali iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishi asoslangan

1-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, xorijiy olimlar ijtimoiy xizmatlarni faqat ijtimoiy himoya vositasi sifatida emas, balki inson kapitali va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik omil sifatida talqin qilganlar. Ayniqsa, inson kapitali nazariyasi doirasida ijtimoiy xizmatlar iqtisodiy samaradorlikka ega investitsiya sifatida baholangani muhim ilmiy xulosadir.

Biroq, mazkur yondashuvlar ijtimoiy xizmatlarning institutsional mexanizmlari va davlat ishtirokining shakllarini to'liq ochib bermaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Jahon amaliyotida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil etish va rivojlantirishning turli institutsional modellari shakllangan bo'lib, ular har bir mamlakatning tarixiy taraqqiyot bosqichi, iqtisodiy salohiyati, madaniy qadriyatlari hamda davlatning ijtimoiy siyosatiga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, mazkur modellarni birlashtiruvchi umumiy maqsad aholi turmush sifatini yaxshilash, ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash hamda jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishdan iborat ekanligi kuzatiladi.

Xorijiy tajribani tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi, avvalo, uning moliyalashtirish manbalari, xizmatlar qamrovi darajasi, davlat ishtirokining institutsional shakli hamda boshqaruv mexanizmlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, jahon amaliyotida samarali deb e'tirof etilgan ijtimoiy xizmatlar modellarini chuqur o'rganish va ulardan milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda foydalanish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Skandinaviya yoki Nordik modeli dunyoda eng rivojlangan va samarali ijtimoiy xizmatlar tizimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu model Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Finlyandiya va Islandiya kabi mamlakatlarda shakllangan bo'lib, universallik, ijtimoiy tenglik va davlatning kafolatlovchi ishtiroki tamoyillariga tayanadi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimi hozirgi kunda asosan manzilli ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan bo'lib, uning inson kapitali va iqtisodiy o'sishga qaratilgan investitsion funksiyasi yetarlicha ro'yobga chiqarilmagan. Ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etishda davlatning roli kuchli bo'lishiga qaramasdan, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi xizmatlar qamrovi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uchinchidan, nodavlat sektor va davlat–xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmagan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishning xorijiy, xususan Skandinaviya mamlakatlari tajribasi O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy saboqlarni taqdim etadi. Ushbu tajribani milliy institutsional va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan holda qo'llash ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligini oshirish, aholi turmush sifatini yaxshilash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, Q.X. (2019). *Ijtimoiy soha iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

*Shadieva Gulnora Mardievna - Samarkand Institute of Economics and Service,
Doctor of Economics.*

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0001-7078-8815>

Tel: 90-968 51-22 *e-mail:* gulnora.shodiyeva@mail.ru

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING SERVICE SECTOR COMPETITIVENESS

Аннотация: В статье проведён научный анализ стратегической роли цифровых технологий в эффективном развитии сферы услуг. Обоснована методологическая значимость территориального подхода при оценке динамики развития сервисного сектора в условиях цифровой трансформации национальной экономики. Разработаны комплексные предложения по модернизации сферы услуг в регионах и представлены практические рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности и устойчивости отрасли в цифровой среде.

Ключевые слова: цифровая экономика, сфера услуг, цифровая трансформация, региональное развитие, цифровые сервисы, экономическая эффективность, рыночная инфраструктура.

Abstract: This paper provides a scientific analysis of the strategic role of digital technologies in the effective development of the service sector. The methodological significance of the territorial approach in assessing service sector

Qilichov Bobir Xo'jaqul o'g'li Primqulov Samir	AKADEMIK FAOLIYAT INTEGRATSIYASI: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI	813
4-SHO'BA. INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI		
Shavqiyev Erkin Matlabov Quvonchbek	JAHON IQTISODIYOTIDA ELEKTRON SAVDONING AHAMIYATI	817
Gulnora Mardievna Shadieva	O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA INNOVATSION TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING REGIONAL MODELI	819
Shonazarov Farxod	AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI BOSHQARUVNING SHAKLLANISHI VA NAZARIY EVOLYUSIYASI	822
Shanazarov Farrux Shadiyorovich	IJTIMOIIY XIZMATLAR SOHASIDA ISLOHOTLAR: XALQARO AMALIYOT VA O'ZBEKISTONDA JORIY ETISH MEXANIZMLARI	826
<i>Shadieva Gulnora Mardievna</i>	THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING SERVICE SECTOR COMPETITIVENESS	829
Asadov Obid Nurilloevich	INNOVATSION MOLIYAVIY FAOLIYAT VA UNDA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARNING ROLI	833
Абдуллаева Дилафруз Бахрилловна	ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СТРОИТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЁНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	837
Shanazarov Farrux	O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY XIZMATLAR TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	841
Абдуллаева Дилафруз Бахрилловна	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ УСЛУГ И АВТОРСКАЯ КОРРЕКТИРОВКА ПОКАЗАТЕЛЯ РЕНТАБЕЛЬНОСТИ АКТИВОВ	845